

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 4 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 4

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 4



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№4 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-4>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ УЧУН МУАЛЛИФ МАСЪУЛДИР | АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Рахимова Нигина УЗБЕКИСТАН В ПОИСКАХ АНТИКОРРУПЦИОННОЙ УСТОЙЧИВОСТИ: ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВО, МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ, ОБЩЕСТВЕННОЕ МНЕНИЕ.....	5
2. Alikariyev Nuriddin INSON KAPITALIGA INVESTITSIYALARNING SAMARADORLIGI.....	14
3. Убайдуллаева Раиса СОЦИОКУЛЬТУРНЫЕ ТИПЫ МЫШЛЕНИЯ.....	24
4. Farfiyev Bakhramdjan, Makhmudova Munisakhon THE PHENOMENON OF THE NATIONAL MENTALITY AND ITS RELIGIOUS ELEMENT..	31
5. Сабирова Умида СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ ШКОЛЬНОГО, ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО И ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	41
6. O‘razaliev Gulshada AYOLLARNING TA‘LIM OLISH JARAYONIDA GENDER YONDASHUVINING FALSAFIY VA IJTIMOYIY MOHIYATI.....	50
7. Burxanov Xusniddin MILLIY SAYTLAR TRANSFORMATSIYASIDA MILLIY PLATFORMALAR MASALASI....	56
8. Заретдинова Несибели СОЦИАЛЬНО-ДЕМОГРАФИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ ВОСТОКА.....	64
9. Akramov Xusan HADISIY MEROS VA IJTIMOYIY ME‘YORLAR: NAZARIY HAMDA AMALIY TAHLIL.....	71
10. Ibragimov Murodjon JAMOATCHILIK BILAN ALOQA TEXNOLOGIYALARI (PR)NING VUJUDGA KELISHI VA RIVOJLANISHINING SOTSIOMADANIY JIHATLARI.....	81
11. Raximbayeva Oftobxon MEHNAT FAOLIYATIDA KASBIY VA IJTIMOYIY KOMPETENTLIKNING KORRELYATSIYASI.....	90
12. Shaumarova Nigora IJTIMOIY KONSOLIDATSIYA KONSEPSIYASI: NAZARIYALAR, MEKANIZMLAR VA AMALIYOT.....	97


ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Shaumarova Nigora,

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
Sotsiologiya kafedrasida mustaqil tadqiqotchisi

ИЖТИМОЙ КОНСОЛИДАТСИЯ КОНСЕПСИЯСИ: НАЗАРИЯЛАР, МЕХАНИЗМЛАР ВА АМАЛИЙОТ

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.17792970>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ijtimoiy konsolidatsiya tushunchasining nazariy va amaliy jihatlari kompleks tahlil qilingan. Muallif ijtimoiy birdamlikni ta‘minlashning nazariy modellarini – strukturali funksionalizm (E.Dyurkgeym, T.Parsons), ijtimoiy kapital nazariyasi (J.Koulman, R.Putnam), kommunikativ amaliyat nazariyasi (Yu.Habermas) va kommyunitarizm (A.Etsioni) – yoritib, ularning umumiy va farqli jihatlarini ochib beradi. Maqolada jamiyatdagi qadriyatlar uyg‘unligi, ishonch muhiti va amaliy hamkorlik kabi omillarning konsolidatsiya jarayonidagi o‘rni ilmiy asosda tavsiflangan. Shuningdek, mahalla instituti, yoshlar tashabbuslari, ma‘naviy-ma‘rifiy dasturlar va fuqarolik madaniyati ijtimoiy birlik va barqarorlikni ta‘minlashda muhim mexanizm sifatida tahlil etilgan. Tadqiqotda sotsiologik tarmoq tahlili, diskurs tahlili va keys-stadi usullari qo‘llanilib, ijtimoiy konsolidatsiyaning iqtisodiy, siyosiy va madaniy poydevorlari o‘zaro bog‘liq tizim sifatida ko‘rsatilgan. Xulosada, jamiyatdagi uzviy birdamlikni ta‘minlash – ma‘naviy uyg‘unlik, ishonchli institutlar va faol fuqarolik ishtirokini uyg‘unlashtirgan holda amalga oshirilishi lozim.

Kalit so‘zlar: ijtimoiy konsolidatsiya, ijtimoiy kapital, institutsional ishonch, fuqarolik madaniyati, ma‘naviy dasturlar, tarmoq tahlili, konsensus, mahalla, yoshlar siyosati, sotsiologik tadqiqot.

Шаумарова Нигора,

Независимый исследователь кафедры Социологии
Национального университета Узбекистана имени Мирзо Улугбека

КОНЦЕПЦИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОНСОЛИДАЦИИ: ТЕОРИИ, МЕХАНИЗМЫ И ПРАКТИКА

АННОТАЦИЯ

В настоящей статье представлено комплексное социологическое исследование теоретических и практических аспектов социальной консолидации как сложного общественного явления. Автор рассматривает ключевые теоретические модели, объясняющие механизмы достижения социальной сплочённости, включая структурный функционализм (Э.Дюркгейм, Т.Парсонс), теорию социального капитала (Д.Коулман, Р.Патнэм), теорию коммуникативного действия (Ю.Хабермас) и коммунитаризм (А.Этциони), акцентируя внимание как на сходствах, так и на различиях данных подходов. В центре анализа находятся такие компоненты консолидации, как ценностно-нормативное согласие, доверие к

социальным институтам и практическое сотрудничество между группами. Также изучается роль института махалли, молодежных инициатив, духовно-просветительских программ и гражданской культуры как эффективных механизмов укрепления социальной устойчивости. Методологической базой исследования выступают сетевой анализ, дискурсивный анализ и кейс-стади, что позволяет выявить взаимосвязь между экономическими, политическими и культурными основами социальной консолидации. В заключение подчеркивается, что прочное общественное единство возможно лишь при гармоничном сочетании нравственных ценностей, надежных институтов и активного гражданского участия.

Ключевые слова: социальная консолидация, социальный капитал, институциональное доверие, гражданская культура, духовные программы, сетевой анализ, консенсус, махалля, молодежная политика, социологическое исследование.

Shaumarova Nigora,

Independent researcher at the Department of Sociology
of the Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

THE CONCEPT OF SOCIAL CONSOLIDATION: THEORIES, MECHANISMS, AND PRACTICE

ABSTRACT

This article presents a comprehensive sociological analysis of both the theoretical and practical dimensions of social consolidation as a complex societal process. The author examines major theoretical models explaining the formation of social cohesion, including structural functionalism (E Durkheim, T Parsons), social capital theory (J.Coleman, R.Putnam), communicative action theory (J Habermas), and communitarianism (A.Etzioni), highlighting both their conceptual overlaps and distinctions. The paper explores key factors such as normative-value integration, institutional trust, and cooperative interaction among societal actors. Particular attention is given to the role of community structures (mahalla), youth initiatives, moral and educational programs, and civic culture as effective mechanisms for fostering long-term social stability. The research methodology includes network analysis, discourse analysis, and case study approaches, allowing for a deeper understanding of the interconnection between the economic, political, and cultural foundations of social consolidation. The study concludes that sustainable societal cohesion must be achieved through the synergistic integration of moral harmony, trusted institutions, and active civic engagement.

Keywords: social consolidation, social capital, institutional trust, civic culture, moral education, network analysis, consensus, mahalla, youth policy, sociological research.

KIRISH

Ijtimoiy konsolidatsiya – jamiyat guruh va qatlamlarining umumiy qadriyatlar, me'yorlar, manfaatlar atrofida birlashishi, o'zaro ishonch va hamkorlik asosida umummanfaatli maqsadlarga yo'nalishi jarayonidir. Ijtimoiy konsolidatsiya – bu jamiyatning turli ijtimoiy guruhlari, qatlamlari va institutlari o'rtasida hamkorlik, birdamlik va hamjihatlikni ta'minlashga qaratilgan jarayon bo'lib, uning negizida umumiy qadriyatlar, maqsadlar va manfaatlar yotadi. Konsolidatsiya – bu faqatgina ichki uyg'unlik emas, balki ijtimoiy barqarorlik, milliy birlik va taraqqiyotning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Konsolidatsiya tushunchasi turli nazariy yondashuvlarda talqin etiladi. Funktsional yondashuvda u jamiyat tizimlari uyg'un ishlashining asosi sifatida qaralsa, ijtimoiy kapital nazariyasida ishonch va hamkorlikning muhim manbai sifatida e'tirof etiladi. Madaniy yondashuv esa umumiy qadriyatlar va an'analar konsolidatsiyaning zaminini tashkil etishini ta'kidlaydi.

METODOLOGIYA

Strukturali funksionalizm sotsiologiyada jamiyatni murakkab ijtimoiy tizim sifatida talqin qiladi va uning barqarorligi, birdamligi hamda tartibini ushlab turish mexanizmlarini tadqiq etadi. Bu yo'nalishning yetakchi vakillari – Emil Dyurkgeym va Tolkott Parsons ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlarini tushunishda muhim nazariy asoslarni yaratganlar.

Emil Dyurkgeymning ta'limotiga ko'ra, jamiyatdagi yakdillik ikki turdagi birdamlik asosida vujudga keladi: **mexanik birdamlik** va **organik birdamlik**. Mexanik birdamlik avvalgi an'anaviy jamiyatlarga xos bo'lib, u umumiy ishonchlar, urf-odatlar va umumiy turmush tarziga asoslanadi. Bunday jamiyatlarda individlar o'rtasidagi o'xshashlik va ijtimoiy normalarning qat'iyligi konsolidatsiyani ta'minlaydi(1-jadval). Organik birdamlik esa industrial jamiyatlarga xos bo'lib, mehnat taqsimoti, ixtisoslashuv va ijtimoiy aloqalarning ko'pligi asosida shakllanadi. Bu holda turli ijtimoiy guruhlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va funksional moslik jamiyat birligini ta'minlaydi. Dyurkgeymga ko'ra, normalar va qoidalarning mavjudligi, ularga rioya etish darajasi jamiyatning integratsiya darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [1, – B.47-50].

Tolkott Parsons esa ijtimoiy tizimlarning o'z-o'zini barqaror holda saqlab qolishini ta'minlovchi asosiy funksiyalar haqida ta'limot ishlab chiqqan. Uning “AGIL” modeli (adaptatsiya, maqsad sari yo'nalish, integratsiya, qonuniylik va legitimlashtirish) jamiyatning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun zarur bo'lgan to'rtta funksiyani belgilab beradi. Ayniqsa, “integratsiya” funksiyasi jamiyatning barcha qismi va institutsiyalari o'rtasida hamjihatlik, muvofiqlik va tartibni ta'minlashga xizmat qiladi. Parsons ijtimoiy normalar va qoidalarning ichkilashuvi orqali individlar jamiyat tizimiga moslashadi va shu orqali barqaror konsolidatsiya ta'minlanadi, deb hisoblaydi. Uning fikriga ko'ra, jamiyatda mavjud ijtimoiy institutlar, ayniqsa, oila, maktab, din va siyosiy tuzilmalar – ijtimoiylashuvning asosiy kanallari sifatida harakat qilib, aholining umumiy qiymatlar va qadriyatlar tizimiga singdirilishini ta'minlaydi [2, – B.112-115].

Nazariy yondashuvlar

1-jadval

Nazariya yo'nalishi	Asosiy vakillar	Konsolidatsiya mohiyati
Struktur-funksionalizm	E.Durkheim, T.Parsons	Jamiyatda ijtimoiy rollar va me'yorlar uyg'unligi birlikni ta'minlaydi.
Ijtimoiy kapital nazariyasi	J.Coleman, R.Putnam	Ishonch va tarmoqlar (bonding/bridging) konsolidatsiyani mustahkamlaydi.
Kommunikativ harakat nazariyasi	Yu.Habermas	Anglashuv va ochiq muloqot orqali ijtimoiy birdamlik vujudga keladi.
Zamonaviy konflikt nazariyasi	R.Dahrendorf, P.Bourdieu	Qatlamlararo kelishuv orqali muvozanatga erishiladi.

Ijtimoiy konsolidatsiya jarayonlarini tushunishda ijtimoiy kapital nazariyasi muhim metodologik asoslardan birini tashkil etadi. Ushbu yondashuvni rivojlantirgan Jeyms Koulman va Robert Putnam kabi sotsiologlar ishonch, o'zarolik me'yorlari va ijtimoiy tarmoqlarning jamiyatda hamjihatlik va birdamlikni shakllantirishdagi rolini ta'kidlaydilar. Ular ijtimoiy kapitalni shaxslar va guruhlar o'rtasidagi resurslar almashinuviga, birgalikda harakat qilish qobiliyatiga va barqaror ijtimoiy munosabatlar tizimiga asoslangan noformal aktiv sifatida talqin qiladi.

Jeyms Koulman ijtimoiy kapitalni faoliyatni amalga oshirish imkonini yaratib beradigan resurslar majmuasi sifatida ta'riflaydi. Uning ta'kidlashicha, ishonchli munosabatlar, normalarga itoat qilish va ijtimoiy tarmoqlardagi ishtirok – individlarning va guruhlarning jamoaviy manfaatlar yo'lida muvofiqlashtirilgan harakatlarini rag'batlantiradi. Koulman ijtimoiy kapitalning mikro darajadagi ahamiyatini ochib beradi: u fuqarolar o'rtasidagi ishonch va hamjihatlik orqali ma'lum bir ijtimoiy tizim ichida samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi [3, – B.28-31].

Robert Putnam esa ijtimoiy kapitalni kengroq – jamiyatning institutsional va madaniy barqarorligini ta'minlovchi omil sifatida tahlil qiladi. U ijtimoiy kapitalni ikki turga – “bonding capital” (ichki guruhlar ichidagi birdamlikni kuchaytiruvchi kapital) va “bridging capital” (turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaruvchi kapital) – bo'ladi, deb ko'rsatadi. Bonding kapital mahalla, oila, etnik guruhlar kabi yaqin munosabatdagi tuzilmalarda jipslikni ta'minlaydi,

ammo yopiqlik va ekslyuzivlikka olib kelishi mumkin. Aksincha, bridging kapital ijtimoiy xilma-xillikni qabul qilish, turli guruhlar o'rtasida muloqot va hamkorlikni rivojlantirish orqali keng qamrovli konsolidatsiyani ta'minlaydi. Putnamning ta'kidlashicha, muvaffaqiyatli demokratik jamiyat uchun aynan bridging kapital hal qiluvchi ahamiyatga ega [4, – B.22-26].

Bu ikki yondashuvni umumlashtirib aytish mumkinki, ijtimoiy kapital – bu nafaqat shaxsiy aloqalar, balki jamoaviy ishonch va me'yorlar tizimi orqali ijtimoiy birlikni ta'minlovchi resursdir. U jamiyatdagi individual va guruh darajasidagi munosabatlarni mustahkamlab, konsolidatsiyani ta'minlashdagi vositachi funksiyani bajaradi. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlar, fuqarolik jamiyati institutlari va hamkorlikka asoslangan tadbirlar ijtimoiy kapitalni yaratish va qayta ishlab chiqishda muhim omil sifatida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy konsolidatsiyaning ma'naviy va intellektual asoslarini tushunishda Yurgen Habermasning diskurs nazariyasi va jamoat maydoni konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. Uning nazariy qarashlariga ko'ra, jamiyatda barqaror birlik va o'zaro anglashuvni ta'minlash, zo'ravonlik yoki ma'muriy bosim emas, balki ochiq, erkin va ratsional muloqot jarayoniga bog'liqdir. Bu yondashuv ijtimoiy konsolidatsiyaning kommunikativ asoslarini ilmiy jihatdan asoslashga xizmat qiladi.

Yu.Habermas jamoat maydonini shaxslar va guruhlar o'rtasida erkin axborot almashinuvi va fikr almashuvi amalga oshadigan makon sifatida tasvirlaydi. Uning ta'kidlashicha, jamiyat a'zolari o'rtasidagi ochiq muloqot jarayonida sub'ektlar o'z manfaatlarini erkin bayon etadilar, dalillar asosida bahslashadilar va oxir-oqibatda ratsional kelishuvga (konsensusga) erishadilar. Bu kelishuv – ijtimoiy birlik va hamjihatlikning ma'naviy asosiga aylanadi. Ushbu jarayonda fikrlar tanlovi emas, balki intersub'ektiv anglashuv asosiy rol o'ynaydi. Ya'ni, kelishuv yakka manfaat emas, umumiy manfaatni belgilaydigan aqliy muhokamaga asoslanadi [5, – B.133-140].

Habermasning kommunikativ aql konsepsiyasida, ijtimoiy amaliyat faqat strategik maqsadlarni ko'zlamaydi, balki ma'naviy-etik mezonlarga asoslangan tarzda ham shakllanadi. Agar sub'ektlar erkin va teng sharoitda muloqotda bo'lsalar, ular umumiy manfaatni tan olishga tayyor bo'ladilar. Shuning uchun ham, Habermas ijtimoiy integratsiyani faqat institutsional mexanizmlar orqali emas, balki kommunikatsiya jarayoni orqali shakllanadigan ma'naviy muhit sifatida ko'radi.

Bu yondashuv ijtimoiy konsolidatsiyani ratsional muomala, ma'naviy me'yorlar va ochiq jamoat muhokamasiga asoslangan jarayon sifatida talqin qilish imkonini beradi. Ayniqsa, demokratiya sharoitida jamoat fikri, fuqarolik faolligi va axborot maydonidagi shaffoflik – konsolidatsiyaning intellektual va etik poydevorini mustahkamlaydi.

Ijtimoiy konsolidatsiyani ta'minlashda kommyunitarizm – ya'ni jamoa qadriyatlari va umumiy mas'uliyatga asoslangan qarashlar – muhim falsafiy va sotsiologik yondashuv sifatida namoyon bo'ladi. Bu qarashning yetakchi nazariyachilaridan biri – Amitay Etsioni bo'lib, u jamiyatning barqaror rivojlanishi va birligini ta'minlash uchun fuqarolar nafaqat huquqlarga, balki mas'uliyatlarga ham ega bo'lishi shartligini ta'kidlaydi.

Etsionining ta'kidlashicha, zamonaviy liberal jamiyatlarda shaxs erkinligi va individual huquqlar birinchi o'ringa qo'yilsa-da, bu qarash jamoaviy qadriyatlar va umumiy manfaatlar hisobidan yuritilsa, ijtimoiy parchalanishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun kommyunitarizm jamoa a'zolarining o'zaro bog'liqligi, jamoaviy manfaatlar va fuqarolik burchlariga sodiqlik orqali ijtimoiy hamjihatlikni ta'minlashni ilgari suradi. Bu yerda ijtimoiy konsolidatsiya shaxs va jamoa o'rtasidagi muvozanat, jamoat qadriyatlarini himoya qilish, fuqarolik faolligi va birdamlikni kuchaytirish orqali vujudga keladi [6, – B.45-49].

Kommyunitarizmga ko'ra, insonning faqat shaxsiy manfaatlarini emas, balki jamoat oldidagi burchlarini ham anglashi, uni bajarishga tayyorligi – jamiyat barqarorligining mezoni hisoblanadi. Masalan, mahalla hayotida ishtirok etish, saylovlarda ovoz berish, mahalliy tashabbuslarga hissa qo'shish – bularning barchasi ijtimoiy birlikni mustahkamlaydigan mexanizmlar sirasiga kiradi. Etsioni buni “o'zaro ehtirom va ma'naviy mas'uliyatga asoslangan fuqarolik madaniyati” deb ataydi.

Shu tariqa, kommyunitarizm ijtimoiy konsolidatsiyaga individual erkinlik va jamoa burchi o'rtasidagi konstruktiv muvozanatni ta'minlash vositasi sifatida yondashadi. Bu qarash fuqarolik

jamiyatini faollashtirish, jamoa qadriyatlarini qayta tiklash va barqaror hamjihatlik muhitini shakllantirishda muhim nazariy asos sifatida xizmat qiladi.

Yuqorida ta'riflangan nazariy yondashuvlar – strukturali funksionalizm, ijtimoiy kapital nazariyasi, diskurs modeli va kommyunitarizm – ijtimoiy konsolidatsiyaning ko'p qirrali jarayon ekanini namoyon etadi. Ushbu nazariy nuqtai nazarlarni umumlashtirgan holda, ijtimoiy konsolidatsiyani **uch asosiy o'lchovda** tahlil qilish maqsadga muvofiq:

Qadriyatli-me'yoriy uyg'unlik – jamiyat a'zolari o'rtasida umumiy qadriyatlar, ma'naviy mezonlar va ijtimoiy me'yorlar bo'yicha kelishuv mavjudligi. Bu uyg'unlik jamiyatdagi axloqiy kodeks, madaniy meros va fuqarolik ideallarining yagona mental zaminga tayangan holda shakllanishini anglatadi. Dyurkgeym va Parsons ta'limotlaridagi birdamlik va normalarning ichiga singishi shu o'lchovning nazariy asosidir.

Institutsional ishonch va adolatga ishonch – fuqarolarning davlat va jamoat institutlariga, qonun ustuvorligi va ijtimoiy adolat mexanizmlariga bo'lgan ishonchi. Bu konsolidatsiyaning institutsional poydevorini tashkil etadi. Ijtimoiy kapital nazariyasida ishonch ijtimoiy tarmoqlar orqali shakllansa, Habermasning fikricha, bu ishonch faqat erkin jamoat muhokamasi asosida mustahkamlanadi.

Amaliy-ijtimoiy hamkorlik – fuqarolarning birgalikdagi faoliyati, ko'ngilli harakatlarda ishtiroki, mahalla va jamoa tashabbuslarida faol bo'lishi. Bu o'lchov jamiyat a'zolarining "ijtimoiy kapital"ni amaliy harakatlarga aylantirish qobiliyatini aks ettiradi. Kommyunitarizmdagi fuqarolik mas'uliyati va jamoaviy burch tushunchalari aynan shu o'lchovga to'g'ri keladi.

Demak, ijtimoiy konsolidatsiya faqat davlat siyosati yoki ma'muriy bosim natijasida emas, balki **ma'naviy uyg'unlik, ishonch muhiti va faol fuqarolik ishtiroki** orqali shakllanadigan murakkab va ko'pqirrali ijtimoiy jarayondir. Bu yondashuv konsolidatsiyani nafaqat maqsad sifatida, balki jamiyatning turli tizimlari o'rtasidagi muvozanatli munosabatlarni saqlash vositasi sifatida ham qarash imkonini beradi.

ASOSIY QISM

Ijtimoiy konsolidatsiyaning **iqtisodiy-ijtimoiy asosi** uzluksiz rivojlanish, inson kapitali va barqaror institutlarga tayanadi. Institutlar "jamiyatdagi o'yin qoidalari" sifatida tranzaksion xarajatlarni pasaytiradi, ishonch va kooperatsiyani kuchaytiradi; bu esa resurslar adolatli taqsimoti va hamkorlikni rag'batlantiradi [7, – B.3]. Ijtimoiy kapital – tarmoqlar, o'zarolik me'yorlari va ishonch – inson kapitali shakllanishini tezlashtiradi (oilamaktab-hamjamiyat bog'lanishlari orqali), shu bois u funksiyasiga ko'ra ta'riflanadigan "bir qancha substansiyalar majmuasi" sifatida tushuniladi [8, – B.98-101]. Bunga qo'shimcha, kapitalning turli shakllari (iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy) konversiyasi aholining keng qatlamlari uchun imkoniyatlar yaratadi; ijtimoiy kapital aynan "o'zaro tanish-e'tirof tarmoqlariga bog'langan real va potensial resurslar yig'indisi" bo'lib namoyon bo'ladi [9, – B.248]. Shunday qilib, mehnat bozoridagi ishtirok, ta'lim va ijtimoiy himoyaning qamrovi kengaygan sari, guruhlar o'rtasidagi ishonch uzoq muddatli birdamlikni qo'llab-quvvatlaydi.

Siyosiy asos – qonuniylik, institutsional ishonch va fuqarolik madaniyati uyg'unligi. Fuqarolik madaniyati (participant–subject–parochial omillar nisbati) barqaror demokratiya sharoitida aholi ishtiroki bilan institutsional tartibning "me'yonli" qabul qilinishiga xizmat qiladi [10, – B.7-9]. Fuqarolar uyushmalari, tarmoqlar va o'zaro ishonchdan tug'iladigan ijtimoiy kapital davlat boshqaruvi samaradorligini oshiradi – hududiy institutlar samaradorligi "fuqarolik jamoasi" ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liq ekanini empirik ko'rsatilgan [11, – B.83-120; 163-185]. Bunda ishonch "jamoada umumiy me'yorlarga asoslangan, muntazam, halol va hamkorona xulq-atvor kutilmasidir"; ishonch darajasi yuqori jamiyatlarda kooperatsiya xarajatlari kamayadi va kollektiv harakatlar osonlashadi. Institutlar sifatining oshishi (qonun ustuvorligi, hisobdorlik, inklyuziv siyosat) elitalar-jamoa munosabatlarida kelishuv va qonuniylikni mustahkamlab, konsolidatsiyani barqarorlashtiradi.

Madaniy asos – qadriyat-me'yorlar uyg'unligi, ma'no-ramziy resurslar va muloqot infratuzilmasi. Qadriyatlar va me'yorlar atrofidagi umumiy "ramziy maydon" (madaniy kapital) guruhlararo ishonchni shakllantirib, birgalikda harakat qilishni yengillashtiradi [7, – B.245-255]. "Bog'lovchi" (bonding) va "ko'prik qurovchi" (bridging) ijtimoiy kapitalning mutanosibli muhim:

birinchisi ichki birdamlikni, ikkinchisi esa geterogen guruhlar o'rtasidagi kooperatsiyani ta'minlaydi; aynan shu mutanosiblik jamoat hayotida ishtirok, o'zaro yordam va hududiy tashabbuslar samaradorligini oshiradi [11, – B.88-96; 163-185]. Shunday tarkibiy-madaniy omillar (ommaviy muloqot, jamoat muhokamasi, kelishuvga intilish) ochiq diskurs orqali konsensusni shakllantirib, ijtimoiy “bir butunlik” hissini kuchaytiradi.

Konsolidatsiya – iqtisodiy resurslar (inson/ijtimoiy kapital), siyosiy tartib (institutlar, qonuniylik) va madaniy maydon (qadriyat-me'yor-muloqot) bir-birini kuchaytiruvchi tizimdir. Institutlar tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi, ijtimoiy kapital individual-kollektiv harakatni faollashtiradi, fuqarolik madaniyati esa ishtirok va qonuniylikni mustahkamlab, umumiy maqsadlarga safarbarlikni ta'minlaydi

Ijtimoiy konsolidatsiya o'z tabiatiga ko'ra ko'p qirrali, ko'p sathli va dinamik hodisadir. Unda qadriyatlar, ishonch, institutsional munosabatlar va faol fuqarolik ishtiroki kabi bir-biri bilan bog'liq omillar qatnashayotgani sababli, uni tahlil qilishda **kompleks yondashuv** zarur bo'ladi. Bu borada turli xil sotsiologik tadqiqot usullarini birlashtirish – eng samarali usullardan biri hisoblanadi.

Miqdoriy yondashuvlar orqali ijtimoiy konsolidatsiyaning indikatorlari statistik jihatdan baholanadi. Buning uchun, **umummilliy yoki hududiy sotsiologik so'rovnomalar, indeksli shkalalar** va **soniy ko'rsatkichlardan** foydalaniladi. Masalan, **ishonch indeksi** orqali aholining davlat institutlariga, mahalla organlariga va jamoat birlashmalariga nisbatan ishonchi o'lchanadi. **Ijtimoiy ishtirok indeksi** jamoat tadbirlarida, saylovlarda va mahalliy tashabbuslarda qatnashish darajasini ko'rsatadi. **Qo'shnihilik aloqalari**, “raqamli ishtirok” (onlayn-petitsiya, ijtimoiy tarmoqlardagi mobilizatsiya) kabi ko'rsatkichlar orqali aholining birdamlik salohiyati baholanadi.

Sifatli metodlar ijtimoiy konsolidatsiyaning ma'naviy, madaniy va individual tajriba bilan bog'liq jihatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Quyidagi usullar bu borada keng qo'llaniladi:

Fokus-gruppa muhokamalari – aholining konsolidatsiya, ishonch, o'zaro yordam va manfaatlar to'qnashuviga oid fikrlarini chuqur o'rganish imkonini beradi;

Keys-stadi – mahallalarda amalga oshirilgan jamoaviy loyihalar, yoshlar tashabbuslari, fuqarolik forumlari kabi aniq holatlarni tahlil qilish orqali muvaffaqiyat va muammoli nuqtalar aniqlanadi;

Ishtirokchi kuzatuv – tadqiqotchi jamoa ichida to'g'ridan-to'g'ri qatnashish orqali norasmiy munosabatlar, yordam shakllari va mikrosotsiologik dinamikani baholaydi.

Media va ijtimoiy tarmoqlardagi ijtimoiy konsolidatsiyaga oid **diskurslar, narrativlar va ramzlarni** tahlil qilish orqali jamoaviy tafakkur, stereotiplar va taqsimotlar aniqlanadi. Masalan, jamoaviy hamjihatlik, “biz” va “ular” dixotomiyasi, yoki “ijtimoiy sinovlar”ga javob sifatidagi hamkorlik shakllari qay tarzda aks ettirilayotgani tahlil etiladi. Bu tahlilni **“kundalik ijtimoiy geografiya”** deb ataluvchi yondashuv bilan bog'lash mumkin, ya'ni shaxsiy tajriba va joy bilan bog'liq ijtimoiy ma'nolar o'rganiladi.

Jamoa ichidagi o'zaro aloqalarni, resurslar oqimini va ta'sir markazlarini o'rganishda **tarmoq tahlili** (network analysis) muhim ahamiyatga ega. Bu usul orqali ijtimoiy bog'lanishlar zichligi, markaziy nuqtalar (influencers), **“bridging nodes”** – ya'ni turli ijtimoiy guruhlar o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradigan shaxslar yoki tuzilmalar aniqlanadi [12, – B.584].

Shu tariqa, ijtimoiy konsolidatsiyani to'liq va chuqur o'rganish uchun miqdoriy va sifatli usullarni o'zaro bog'liq holda qo'llash, jamiyatdagi hamjihatlik, ishonch va hamkorlik mexanizmlarini to'liq qamrab olish imkonini beradi. Bunday **kompleks yondashuv** nafaqat ilmiy tahlil uchun, balki samarali ijtimoiy siyosat yuritish uchun ham metodologik asos yaratadi.

Ma'naviy-ma'rifiy dasturlar jamiyatda umumiy qadriyatlar va fuqarolik identichligini mustahkamlab, institutlarga ishonchni oshiradi va birgalikda harakat qilish qobiliyatini (collective efficacy) kuchaytiradi. Ishonchning omillari bo'yicha YaIM mamlakatlari tajribasini umumlashtirgan OECD ramkasining “qadriyatlar (adolat, ochiqlik, beg'arazlik)” va “kompetensiya (ijro qobiliyati, barqarorlik)” o'lchamlari aynan shunday dasturlar orqali yaxshilanishi mumkinligi ta'kidlanadi [13, – B.7; 41-42].

Tarixiy xotira, madaniy meros va fuqarolik mas'uliyatini markazga qo'yadigan ma'naviy-ma'rifiy loyihalar rasonal muloqot va kelishuvga tayangan jamoat muhokamalari orqali

“konsensus”ga yo‘l ochadi. Habermas ta’biricha, kommunikativ amaliyat orqali qonuniylik va o‘zaro anglashuvni yaratadi [14, – B.25]. O‘zbekistonda bu yo‘nalish institutsional darajada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining gi 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-5040-son Qarori bilan mustahkamlanib, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilikka barham berish, internetdan foydalanish madaniyatini oshirish kabi ustuvor vazifalarni belgilaydi [14].

Ma’naviy-ma’rifiy dasturlar qo‘shnichilik, ko‘ngillilik va o‘zaro yordam tarmoqlarini rivojlantirib, “yaqin doira”dagi bog‘lanishlar – **bonding** (kundalik “amalda tirak bo‘lish”), turli guruhlarni bog‘lovchi ko‘priklar – **bridging** (“olg‘a intilish”), hamda turli hokimiyat-resurs sathlari o‘rtasidagi aloqalar – **linking** kapitalini shakllantiradi. Amaliyotda bu – mahalladagi “xashar”, “ijtimoiy sheriklik” aksiyalari, yoshlar ko‘ngillilari harakatlari orqali ijtimoiy tarmoqlar zichligini va o‘zaro ishonch me‘yorlarini kuchaytirishni anglatadi; natijada jamoalarda hamjihat qarorlar qabul qilish salohiyati ortadi.

O‘zbekistonda mahalla instituti tarixiy, madaniy va ijtimoiy jihatdan jamiyatning eng muhim o‘zini o‘zi boshqarish shakli sifatida shakllangan. U nafaqat ma’muriy tashkilot, balki insoniylik, hamjihatlik va o‘zaro yordam me‘yorlari shakllanadigan yaqin ijtimoiy muhit sifatida ham harakat qiladi. Shuning uchun mahallalarda amalga oshirilayotgan ma’naviy-ma’rifiy ishlarning ijtimoiy konsolidatsiyani ta’minlashdagi ta’siri alohida tahlilni talab qiladi.

Avvalo, mahalla institutlarining ichki tuzilishida faoliyat yuritayotgan “yoshlar yetakchisi”, “xotin-qizlar faoli”, profilaktika inspektori, nodavlat notijorat tashkilotlari va mahalliy imom-xatiblar o‘rtasidagi hamkorlik – mahallada ma’naviy muhitni mustahkamlash, yoshlarni ijtimoiy hayotga jalb etish va qiymatlar uzluksizligini ta’minlashda muhim vositadir.

Ikkinchidan, mahallalar doirasida olib borilayotgan ijtimoiy ehtiyojli guruhlarning monitoringi, mediatsiya ishlari, aholi bandligi va tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash konsolidatsiyaning amaliy bazasini mustahkamlaydi. Bunday faoliyat orqali mahallada yashayotganlar o‘rtasida o‘zaro yordam va ishonch muhiti paydo bo‘ladi, bu esa mikro-konsolidatsiyaning institutsional poydevori sifatida namoyon bo‘ladi.

Bundan tashqari, mahallalardagi ijtimoiy muammolarni hal etishda keyc-menejment va individual yo‘l xaritasi (individualizirovannaya dorojnaya karta) asosida ish yuritish tajribasi tobora kengaymoqda. Bu usullar ixtiloflar va muammolarni erta aniqlash, barvaqt profilaktika qilish orqali jamoa ichidagi ixtilofli nuqtalarni yumshatish va konsolidatsiyani saqlash imkonini beradi. Bu jihatda mahalla faollari, profilaktika inspektorlari va psixologlarning hamkorligi hal qiluvchi ahamiyatga ega [15, – B.93-94].

Zamonaviy jamiyatda yoshlar nafaqat demografik guruh sifatida, balki ijtimoiy transformatsiya jarayonlarining asosiy tashuvchilari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular **innovatsion fikrlash, raqamli kommunikatsiya** va **ma’naviy izlanish**da faol ekanligi tufayli, **ijtimoiy konsolidatsiyani shakllantirishda strategik guruh** sifatida alohida o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, **ma’naviy-ma’rifiy dasturlar** – yoshlarning ijtimoiy huviyati, ishonchi va jamoaviy mas’uliyatini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi.

Birinchi navbatda, **identichlik va shaxsiy missiyani aniqlash** – konsolidatsiya jarayonidagi ichki motivatsion drayver sifatida namoyon bo‘ladi. Yoshlarni kitobxonlik, ixtiyoriy faoliyat, ekologik yoki ijtimoiy loyihalarga jalb qilish – “men kimman?” va “men jamiyatga nima bera olaman?” kabi savollarga ijobiy javob topishga xizmat qiladi. Bunday faoliyat turlari shaxsiy missiyani jamoat manfaati bilan uyg‘unlashtirish imkonini yaratadi.

Ikkinchidan, **ishonch va faol fuqarolik liderligini** shakllantiruvchi platformalar (debat klublari, yoshlar forumlari, tadbirkorlik akseleratorlari va boshqalar) orqali yoshlarda muammolarni hal etish, jamoa oldida chiqish qilish, tashabbus ko‘rsatish kabi **kompetensiyalar** rivojlanadi. Bu esa ijtimoiy kapitalning faol shakli – ya’ni “liderlik ishonchi” orqali konsolidatsiyani mustahkamlashda xizmat qiladi.

Uchinchidan, raqamli dunyoda vujudga kelgan **mediamadaniyat** va **sifrovoe grajdanstvo** (raqamli fuqarolik) tushunchalari ham yoshlarning konsolidatsiyadagi rolini belgilab beradi.

Mediasavodxonlikni oshirish, feyk axborot va nafrat ritorikasiga qarshi **aqliy immunitetni** shakllantirish orqali yoshlar sog'lom jamoat muhitiga hissa qo'shishadi. Bu esa internet muhokamalarida madaniy muloqot standartlarini ta'minlash, polyarlashuvga qarshi profilaktik ta'sir ko'rsatishga yordam beradi. Shu tarzda, ma'naviy-ma'rifiy dasturlar – yoshlarning shaxsiy o'sishi, jamoa bilan bog'liqlik hissi va faol fuqarolikka asoslangan pozitsiyasi orqali **ijtimoiy konsolidatsiyaning ma'naviy, institutsional va amaliy poydevorini mustahkamlaydi**. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan “Yoshlar daftari”, “Yoshlar parlamenti”, “Yoshlar internet faollari” kabi tashabbuslar ana shu maqsadni amalga oshirishga qaratilgan muhim ijtimoiy-madaniy mexanizmlardir.

XULOSA

Shunday qilib, ijtimoiy konsolidatsiya – bu faqat zohiriy birdamlik emas, balki jamiyatning turli qatlam va guruhlariga o'rtasidagi ichki ishonch, qiymatli uyg'unlik va hamkorlikka asoslangan murakkab ijtimoiy jarayondir. U o'z tabiatiga ko'ra ko'p qirrali (qadriyat, institutsional, amaliy), ko'p sathli (individ, guruh, institut) va dinamik (vaktga va sharoitga bog'liq) tizim sifatida shakllanadi. Mazkur ilmiy izlanishda konsolidatsiya tushunchasi bir nechta nazariy paradigma kesishmasida – strukturali funksionalizm (Dyurkgeym, Parsons), ijtimoiy kapital nazariyasi (Koulman, Putnam), kommunikativ amaliyat (Habermas) va kommyunitarizm (Etsioni) doirasida tahlil etildi. Bu yondashuvlar ijtimoiy tartib, ishonch, umumiy qiymatlar va institutsional muvofiqlikni konsolidatsiyaning ustuvor shartlari sifatida asoslab berdi. Ayniqsa, fuqarolik madaniyati, kommunikatsiya, jamoat muhokamasi va faol fuqarolik pozitsiyasi konsolidatsiyaning ma'naviy-intellektual poydevori ekanini ochiqsladi. Amaliyot nuqtai nazaridan, mahalla instituti, yoshlar tashabbuslari va ma'naviy-ma'rifiy dasturlar mikro darajada ishonch va jamoaviy faollikni kuchaytirish orqali konsolidatsiyani barqarorlashtiruvchi muhim ijtimoiy muhit sifatida namoyon bo'ladi. Institutsional darajada – qonun ustuvorligi, hisobdorlik, inklyuziv siyosat; madaniy darajada – umumiy ramziy maydon, muloqot infratuzilmasi va “taniqlilik tarmoqlari” (bridging capital) konsolidatsiyani ta'minlovchi bazaviy omillardir. Ushbu omillar o'zaro ta'sir qiluvchi tizimda shakllanib, inson kapitali, ijtimoiy kapital va institutlar sifatining muvozanatli rivojini talab etadi. Bundan kelib chiqib, ijtimoiy konsolidatsiyani ilmiy tahlil etishda faqat yakka nazariy modellarga emas, balki integrativ yondashuvlarga tayanish va ko'p manbaga asoslangan sotsiologik metodlarni (triangulyatsiya, tarmoq tahlili, keys-stadi, diskurs tahlili) qo'llash dolzarb hisoblanadi. Demak, jamiyatda uzviy birlikni ta'minlash, fuqarolik hususiyatini mustahkamlash va umumiy maqsadlar atrofida harakatlanish imkoniyati – ijtimoiy konsolidatsiyaning strategik maqsadi va ijtimoiy barqarorlikning zaruriy sharti sifatida qayta qaralishi lozim.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Дюркгейм Э. О разделении общественного труда. – М.: Наука, 1991. – С. 47–50.
2. Парсонс Т. Структура социального действия. – М.: Академический проект, 1998. – С. 112–115.
3. Коулман Ж. Социальный капитал в создании человеческого капитала // Социологические исследования. – 2001. – № 1. – С. 28–31.
4. Патнем Р. Делать демократию работоспособной: гражданские традиции в современной Италии. – М.: Вес Мир, 2000. – С. 22–26.
5. Хабермас Ю. Структурные изменения публичности. – М.: Праксис, 2001. – С. 133–140.
6. Etzioni A. (1995). The Spirit of Community: Rights, Responsibilities, and the Communitarian Agenda. New York: Crown Publishers. – pp. 45–49.
7. North D. C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. Cambridge: Cambridge University Press, 1990. – 152 p.
8. Coleman, J. S. Social Capital in the Creation of Human Capital // American Journal of Sociology. 1988. Vol. 94 (Supplement). P. S95–S120. (ta'rif: b. S98–S101).

9. Bourdieu P. The Forms of Capital // Richardson J. G. (ed.). Handbook of Theory and Research for the Sociology of Education. New York: Greenwood, 1986. P. 241–258.
10. Almond G. A., Verba, S. The Civic Culture: Political Attitudes and Democracy in Five Nations. Princeton: Princeton University Press, 1963. – 574 p. (civic culture ta’rifi: b. 7–9)
11. Putnam R. D., Leonardi R., Nanetti R.Y. Making Democracy Work: Civic Traditions in Modern Italy. Princeton: Princeton University Press, 1993. (qarang: Ch. 4 “Civic Community”, P. 83–120; Ch. 6 “Social Capital and Institutional Success”, P. 163–185).
12. Bebbi E. Praktika sotsiologicheskix issledovaniy: per. s angl. – 15-ye izd. – Boston: Cengage Learning, 2021. – 584 s.
13. OECD. Trust and Public Policy: How Better Governance Can Help Rebuild Public Trust. – Paris: OECD Publishing, 2017. – 4–5; 89–92; 107; 114–115-betlar.
14. <https://lex.uz/docs/-5344692>
15. Ixtiyarov F.A. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy davlat asoslarining mustahkamlanishi va inson kapitaliga e’tibor//“Ijtimoiy davlat sharoitida jamiyatni faollashtirish va davlat fuqarolik xizmatini rivojlantirish imkoniyatlari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi davlat boshqaruvi akademiyasi. – Toshkent., 2023. – B. 93-94.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000